

**KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING TASHKILIY TUZILISHI:
O'ZBEKISTON VA ROSSIYA TAJRIBASI ASOSIDA TAHLILI**

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich,

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,

iqtisod fanlari doktori professor,

Ismailov Ramazon Bekjon o'g'li,

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi

Rossiya xalq xo'jaligi va davlat xizmati

akademiyasi (RANXiGS) qo'shma magistratura magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Rossiya korporativ boshqaruv tizimlarida raqamli texnologiyalarning o'ziga xosligi, davlat va xususiy sektor ishtiroki, hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanishining tashkil etilish yondashuvlari tahlil qilinadi. O'zbekistonning raqamli infratuzilmasi davlat tomonidan markazlashtirilgan boshqaruv asosida rivojlantirilayotgani va xususiy sektorning asta-sekin faollashayotgani ko'rsatildi. Rossiya esa yirik kompaniyalar va ixtisoslashgan tarmoqlar orqali raqamli texnologiyalarni ilgari surmoqda. Maqola raqamli iqtisodiyotning hozirgi holati va istiqbollari haqida qiyosiy tahlil beradi hamda mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib takliflar beradi.

Kalit so'zlar: Raqamli infratuzilma, hukumat ishtiroki, xususiy sektor, korporativ boshqaruv, raqamli iqtisodiyot, O'zbekiston, Rossiya, elektron hukumat, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), ixtisoslashgan yondashuv.

Annotation: This article explores the specifics of applying digital technologies in corporate governance systems using the examples of Uzbekistan and Russia. A comparative analysis of approaches is provided, with emphasis on the role of the private sector and governmental initiatives. The article identifies key areas of digitalization and proposes recommendations for improving organizational structures in the context of digital transformation.

Keywords: Digital economy, corporate governance, digital transformation, Uzbekistan, Russia, e-government, smart city, cloud technologies, IoT.

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya global iqtisodiyotda muhim tendensiyaga aylangan. Raqamli texnologiyalar korporativ boshqaruv tizimida samaradorlik, shaffoflik va tezkor qaror qabul qilish imkonini yaratmoqda. O'zbekiston va Rossiya

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

kabi davlatlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, bu yo'nalishda sezilarli natijalarga erishmoqda.

Iktisodiy tadkikotlar va islohotlar markazi so'nggi yillarda O'zbekistonda rakamli iktisodiyot kanday rivojlanganligi to'g'risida tadkikot tayyorlab, unda rakamlashtirish sur'atlari 4 barobarga oshganligini kifrsatganlar. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, rakamli iktisodiyotda xususiy biznes asosiy rol o'ynashi va davlat xususiy tashabbus uchun infratuzilmani yaratishi lozim.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sur'atlari Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, yillarda davomida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlangan bo'lib, raqamlashtirish sur'atlari 4 barobar oshgan. Xusan: Axborot-kommunikatsiya xizmatlari bo'yicha yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 2016 yildagi 4,4 trln so'mdan 2023 yilda 8,8 trln so'mga yetgan. Soha xizmatlari hajmi esa 6,3 trln so'mdan 12,9 trln so'mgacha oshgan. Elektron hukumat, elektron tijorat, "aqli shahar" va "xavfsiz shahar" kabi loyihalar orqali davlat boshqaruvi va xizmatlar ko'rsatish tizimi raqamli yechimlarga asoslanmoqda. Buni Rossiya iqtisodiyoti bilan qiyoslasak, Rossiyada raqamli transformatsiya va uning korporativ boshqaruvga ta'siri Rossiya ham raqamli iqtisodiyotda sezilarli siljishlarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2017 yilda qabul qilingan "Raqamli iqtisodiyot" milliy dasturi asosida quyidagilar amalga oshirilmoqda: Korxonalarda ERP tizimlari, CRM platformalari va sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlari keng joriy etilmoqda; Rossiya Federal Soliq xizmati va "Gosuslugi" platformasi orqali elektron davlat xizmatlarining sifati va tezligi oshdi; "Sber", "Yandex", "Gazprom Neft" kabi yirik kompaniyalar o'z korporativ boshqaruv tizimlarini to'liq raqamlashtirib, faoliyat samaradorligini keskin oshirdi. Rossiyada "aqli sanoat" (smart industry) va "raqamli twinning" joriy etilishi sanoat korxonalari samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ldi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

Tashkiliy tuzilmadagi o'xshashlik va farqlar

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Rossiya
Raqamli infratuzilma	Faol rivojlanmoqda, davlat qo'llab-quvvatlamоqda	Yirik kompaniyalar o'z infratuzilmasini yaratgan
Hukumat ishtiroki	Yuqori: elektron hukumat, AKT loyihalari	Yuqori: davlat strategiyasi asosida
Xususiy sektor ishtiroki	Kengaymoqda, lekin hali sust	Juda faol, IT-kompaniyalar ilg'or
Tashkiliy yondashuv	Markazlashtirilgan	Ixtisoslashgan, tarmoqlar bo'yicha

Yuqoridagi jadvalda Raqamli infratuzilma O'zbekistonda Raqamli infratuzilma faol rivojlanmoqda va bu jarayon davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Ya'ni, hukumat yangi raqamli texnologiyalarni joriy etish, internet tarmoqlarini kengaytirish, ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun zarur bo'lgan infratuzilma yaratishga katta e'tibor bermoqda. Rossiya: Katta korporatsiyalar va yirik kompaniyalar o'zlarini mustaqil ravishda raqamli infratuzilmani yaratmoqda va rivojlantirmoqda. Bu esa ularning biznes jarayonlarini tezlashtirish, samaradorlikni oshirish uchun maxsus infratuzilma va texnologiyalarni qo'llashni anglatadi. Hukumat ishtiroki O'zbekiston: Hukumatning ishtiroki yuqori darajada bo'lib, elektron hukumat tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) loyihalari ustida faol ishlanmoqda. Bu davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun olib borilayotgan strategik choralardir. Rossiya: Hukumat ishtiroki ham yuqori bo'lib, raqamli rivojlanish davlat strategiyasi asosida amalga oshiriladi. Bu esa keng qamrovli davlat dasturlari, qonuniy bazalar va iqtisodiy tashabbuslarni o'z ichiga oladi. Xususiy sektor ishtiroki O'zbekiston: Xususiy sektor ishtiroki kengaymoqda, ya'ni xususiy biznes raqamli iqtisodiyotga asta-sekin kirib bormoqda, biroq u hali ham sust rivojlanmoqda. Bu xususiy kompaniyalar, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari raqamli texnologiyalardan to'liq foydalana olmayotganidan dalolat beradi. Rossiya: Xususiy sektor juda faol bo'lib, ayniqsa IT-kompaniyalar raqamli infratuzilma va xizmatlar yaratishda yetakchi o'rin tutmoqda. Ular yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va keng qo'llashda oldinda borishadi. **Xulosa:** O'zbekistonda raqamli infratuzilma davlat tomonidan markazlashtirilgan boshqaruv asosida faol rivojlantirilmoqda va hukumatning ishtiroki yuqori. Xususiy

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

sektor asta-sekin rivojlanmoqda, ammo hali sustlik mavjud. Rossiyada esa raqamli infratuzilma ko‘proq yirik kompaniyalar tomonidan mustaqil ravishda yaratiladi, davlat ishtiroki yuqori bo‘lishiga qaramay, tashkiliy yondashuv tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashgan. Shu bilan, O‘zbekiston va Rossiya raqamli iqtisodiyot rivojida turli yo‘nalishlarda harakat qilmoqda va bir-biridan o‘rganishi mumkin.

REFERENCES

1. Madsen A. S. Opening the organizational thinking for new breakthroughs // http://www.strategic-innovation.dk/downloads/Opening_breakthroughs.pdf
2. Бабанова Ю.Б., Орлов В.М., Антонуан Р.С. Гибкие технологии управлениуа предприятием в условиях цифровизації економики // Известиуа Волгоградского государственного технического университета. 2018. № 6 (216). С. 61–66.
3. Suyunova D.D. Raqamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobjiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376.2025>, fevral.
4. Suyunova D.D. Rakamli iktisodiyot tizimi iktisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375.2025>, fevral.
5. Suyunova D.D. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Ekonomika i sotsium" №11(126). https://www.iupr.ru/.files/.ugd/b06fdc_5772198b03034ea1b82d7241321.acec8.pdf, index.true.2024, noyabr.
6. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 7-son, UO‘K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402.2024>, iyul.
7. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrdss/article/view/3825/3055.2023>, sentyabr.
8. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobjiy tomonlarini joriy qilish. European science

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376.2025>,

9. Суюнова Д.Д. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Экономика и социум" №11(126). https://www.iupr.ru/.files/.ugd/b06fdc_5772198_b03034_ea1_b82d_7241321.acec8.pdf, index.true.2024, ноябрь.

10. Суюнова Д.Д. Корпоратив бошқарувнинг самарадорлигини оширишда рақамли технологиялардан фойдаланиш масаласига илмий қарашлар. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил. 7-сон, УО'К: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402.2024>, июл.

11. Суюнова Д.Д. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrdss/article/view/3825/3055.2023>,